Moliyaviy nazoratning boshqa vazifalari qatoriga yuridik adabiyotlarda korxonalar, tashkilotlar tomonidan ularning tasarrufidagi pul mablagʻlaridan (budjet mablagʻlari, bank ssudalari va h.k.) toʻgʻri foydalanilishi hamda tashkilot, korxona va muassasalar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mablagʻlarini saqlashga oid qoidalarga rioya etilishini tekshirish kiritilgan. Yana bir vazifa sifatida moliya intizomi buzilishini bartaraf etish va buning oldini olish, ogohlantirish ajratiladi. Moliyaviy nazoratning nihoyatda muhim vazifalaridan biri, shuningdek, toʻlov aylanmasini normallashtirish, toʻlovlarsiz, debitorlik va kreditorlik qarzlari boʻyicha salbiy oqibatlarni tugatishdir.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan moliya intizomi mustahkamlanadi. Moliya intizomi deganda, davlat va xoʻjalik yurituvchi subyektlar pul jamgʻarmalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan koʻrsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi tushuniladi. Moliya intizomi talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi [8, 76–77-b.].

Bizning fikrimizcha, tekshirish davlat moliyaviy nazoratining alohida vazifasi boʻlolmaydi, chunki tekshirish moliyaviy nazorat shakli hisoblanadi. Shu sababli mazkur olimning fikrlariga biroz qoʻshilib boʻlmaydi. Ammo uning moliya intizomi buzilishini bartaraf etish hamda buning oldini olish va ogohlantirish kabi vazifalarni ajratishi e'tiborga loyiq.

Yana bir guruh olimlar fikricha, moliyaviy nazorat mohiyati uning vazifalarida oʻz ifodasini topadi, ularga quyidagilar kiradi:

korxona va tashkilotlar tomonidan oʻz ixtiyoridagi mablagʻlardan (budjet, bank kreditlari va boshqalar) toʻgʻri foydalanilganini, shuningdek, tashkilotlar, korxona va muassasalar tomonidan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, hisob-kitob qilish va davlat mablagʻlarini saqlash qoidalariga rioya etilishini tekshirish;

moliyaviy sohada jinoyatchilikning oldini olish va toʻxtatish. Ular aniqlangan taqdirda, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda majburlov choralari qoʻllanadi, davlat va xoʻjalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan zarar undirilishi ta'minlanadi [9, 102-b.].

Bizning fikrimizcha, davlat moliyaviy nazoratining majburlov choralarini qoʻllash va yetkazilgan zararni undirish vazifalarini alohida ajratish mumkin.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili jihatlaridan birini ifodalovchi moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

Moliyaviy intizom deganda davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishning belgilangan me’yoriy-huquqiy hujjatlari va tartiblariga rioya etish tushuniladi [10, 102-b.].

Bizning fikrimizcha, mazkur olimning davlat moliyaviy nazoratining huquqbuzarliklarni aniqlash, profilaktika, tarbiyalash va muhofaza qilish funksiyalarini qayd etgani e’tiborli.

Bundan tashqari, davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda amal qilinishi kerak bo‘lgan muhim va boshqa qoidalar mavjud bo‘lib, ular umumiy nom bilan davlat moliyaviy nazorati prinsiplari deb ataladi. Aslida huquq prinsiplari huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang‘ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g‘oyalar va qoidalardir. Huquq prinsiplari, avvalambor, huquq qonuniyatlarini ifodalaydi, qolaversa, butun huquqiy tartibga solish sohasida amal qiladigan va barcha subyektlarga nisbatan qo‘llanadigan eng umumiy normalardan iborat bo‘ladi [11, 65-b.]. Mazkur prinsiplar moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy nazoratni o‘tkazish tartibi, usul va vositalari ham huquq va qonunchilikning muhim prinsiplariga tayanishi lozim.

Jahon hamjamiyati ko‘p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir sivilizatsiyalashgan davlati intiladi. Bu prinsiplar INTOSAIning Lima deklaratsiyasida o‘z aksini topgan. Ularga quyidagilar kiradi:

- mustaqillik;
- obyektivlik;
- kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik);
- oshkoralik.

Moliyaviy nazorat mustaqilligi nazorat organining moliyaviy jihatdan mustaqilligi, nazorat organlari rahbarlari vakolat muddatlarining parlament muddatlaridan uzoqligi, shuningdek, ularning konstitutsion xarakteri bilan ta’minlanishi kerak. Obyektivlik va kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik) nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka so‘zsiz itoat etilishi, taftish ishlarini amalga oshirishning belgilangan (o‘rnatilgan) standartlariga (andozalariga) qattiq rioya etilishi asosida nazoratchilar ishining yuqori kasbiy darajada bo‘lishini taqozo etadi. Oshkoralik davlat nazoratchilarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqada bo‘lishini ko‘zda tutadi. Ana shu asosiy prinsiplardan amaliy xarakter kasb etuvchi moliyaviy nazoratning quyidagi boshqa prinsiplari kelib chiqishi mumkin:

- natijalilik;
- nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablar aniqligi va mantiqiyligi;
- nazorat subyektlarining sotib ololmasligi;
- tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma’lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi;
- preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiruvchanligi);
- moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumpsiyasi;
- turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi va boshqalar.

Bir guruh olimlar fikricha, nazorat mustaqilligi prinsipining namoyon bo‘lishi nazorat organining moliyaviy mustaqilligi, organlar rahbarlari vakolatlarining parlament muddatiga

nisbatan koʻproqligi, ularning maqomi mamlakat Konstitutsiyasida mustahkamlab qoʻyilganligidir.

Obyektivlik va malakalilik tamoyili nazorat qiluvchi organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amaldagi qonunchilikka qatʼiy rioya etilishi, nazorat faoliyatini amalga oshirishning qatʼiy belgilangan standartlaridan kelib chiqqan holda nazoratchilar ishining yuqori professional darajasi tushuniladi.

Ushbu universal tamoyillardan nazorat faoliyatini amalga oshirishda amaliy faoliyat bilan bevosita bogʻliq boʻlgan boshqa tamoyillar kelib chiqadi. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi: nazoratchilar tomonidan qoʻyiladigan talablarning samaradorligi, aniqligi va izchilligi; nazorat subyektlarining yaxlitligi; tekshirish va auditorlik hisobotlarida koʻrsatilgan maʼlumotlar asosliligi va dalillari; turli nazorat qiluvchi organlar harakatlarini muvofiqlashtirish va boshqalar [12, 103-b.].

Bundan tashqari, "Davlat moliyaviy nazorati toʻgʻrisida"gi qonun loyihasida quyidagi prinsiplar keltirilgan, xususan, davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplari qonuniylik, mustaqillik, xolislik, ochiqlik va shaffoflikdan iboratdir.

Qonuniylik prinsipi. Davlat moliyaviy nazorati organlari oʻz faoliyatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga soʻzsiz rioya etishi hamda ularni bajarishi shart.

Qonun talablarini aniq bajarishdan va ularga rioya etishdan har qanday tarzda chekinish, buning sabablari qanday boʻlishidan qatʼi nazar, qonuniylik buzilishidir va u belgilangan javobgarlikka sabab boʻladi.

Mustaqillik prinsipi. Davlat moliyaviy nazorati organlari oʻz vakolatlarini har qanday davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda, faqat qonunga boʻysungan holda amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatiga davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ular mansabdor shaxslarining aralashuvi taqiqlanadi.

Xolislik prinsipi. Davlat moliyaviy nazorati organlari oʻz faoliyatini ishlarning haqiqiy holatini aniqlash orqali davlat moliyaviy nazorati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga subyektiv fikrlar taʼsir qilishiga, gʻaraz yoki moyillikka yoʻl qoʻymagan holda amalga oshirishi shart.

Ochiqlik va shaffoflik prinsipi. Davlat moliyaviy nazorati organlari oʻz faoliyatini ochiq va shaffof tarzda davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda davlat moliyasini boshqarishni yaxshilash va korrupsiyaga qarshi kurashishga koʻmaklashish maqsadida amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati toʻgʻrisidagi yillik hisobot ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinishi shart [13, 3-b.].

Sh.U. Azizovning fikricha, moliyaviy nazorat maqsadi va uning oldiga qoʻyilgan vazifalardan kelib chiqib, u qaysi tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak degan mulohaza hosil boʻladi. Demak, moliyaviy nazoratni tashkil etish va uni oʻtkazish bilan bogʻliq aksariyat manbalarni tahlil qilish uning asosiy tamoyillari quyidagilar ekanini tasdiqlaydi:

1) mustaqillik;
2) qonuniylik;
3) javobgarlik (ayrim manbalarda daxlsizlik);
4) ochiqlik (ayrim manbalarda oshkoralik);

5) obyektivlik;

6) tizimlilik [14, 5-b.].

V.Sh. Nuritdinova va M.A. Sharapovalarning fikricha, davlat moliyaviy nazoratining quyidagi prinsiplari mavjud. Xususan, qonuniylik tamoyili – davlat va uning barcha organlari, shuningdek, nazorat organlari qonunga muvofiq faoliyat yuritishini, jamiyat va fuqarolar manfaatlari himoya qilinishi ta’minlanishini nazarda tutadi.

Tizimlilik tamoyili – nazorat tadbirlarini oʻtkazishda nazorat obyektining barcha tomonlari va uning oʻzaro aloqalari vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlari boʻyicha koʻrib chiqilishini nazarda tutadi.

Daxlsizlik – nazorat vazifalarini samarali bajarish uchun nazoratchilarning va birinchi navbatda nazorat organi shaxslaridan qarorlarni qabul qiluvchi xodimlarning ma’lum darajali personal daxlsizligi zarurligini tan oladi. Shu maqsadda qonunchilik tartibida nazorat-hisob organlari xodimlarining huquqiy maqomlari kafolati belgilanadi.

Obyektivlik tamoyili – nazorat natijalari, tekshirilgan faktlarning mazmuni qonunlar, yoʻriqnomalar va mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilishni tartibga soluvchi boshqaruv organlari farmoyishlari bilan solishtirish asosida toʻgʻri, toʻliq va obyektiv tushuntirilishini nazarda tutadi.

Malakaviylik tamoyili – nazoratchi-taftishchilar kasbiy mahorati yuqoriligini va ular amaldagi qonun hujjatlariga toʻliq rioya qilishlarini taqozo etadi.

Oshkoralik tamoyili – jamiyat e’tiboriga ommaviy axborot vositasi orqali turli moliyaviy-reja hujjatlari loyihalarini, ularning ijrosi boʻyicha hisobotlarni, moliyaviy faoliyatni tekshirish va taftish natijalari mazmunini yetkazishda ifodalanadi [15, 33-b.].

Oʻzbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni 5-moddasiga muvofiq, xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: 1) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik; 2) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; 3) xoʻjalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik; 4) tadbirkorlik subyekti huquqlarining ustuvorligi, unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib boʻlmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi Budjet kodeksining 172-moddasiga muvofiq, davlat moliyaviy nazoratini oʻtkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining prinsiplaridir.

**Tadqiqot natijalari tahlili.** Davlat moliyaviy nazorati tizimida moliyaviy nazorat turlari, shakllari va usullari muhim rol oʻynaydi. Chunki mazkur kategoriyalar orqali moliyaviy nazoratning turlanishi va shakllari haqida tushunchalarga ega boʻlamiz.

Moliyaviy nazoratni dastlab umumiy ikki katta turga boʻlamiz: davlat moliyaviy nazorati va auditorlik nazorati.

Sh.B. Bilolxoʻjayeva, Gʻ.T. Xakimovlar fikricha, davlat moliyaviy nazorati, oʻz navbatida, bir necha mezonlar boʻyicha turlarga boʻlinadi: xususan, moliyaviy nazorat mazmuniga koʻra:

1) budjet nazorati;

2) soliq nazorati;

3) bank nazorati;
4) valyuta nazorati;
5) bojxona nazorati;
6) sugʻurta nazorati.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlarning huquqiy maqomiga koʻra:
1) vakillik organlari nazorati;
2) prezident nazorati;
3) hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
4) hukumat nazorati;
5) maxsus vakolatli ijro hokimiyati organlari nazorati;
6) Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Idoraviyligiga koʻra, idoraviy va ichki idoraviy (ichki xoʻjalik) nazoratga boʻlinadi [16, 73-b.].

Moliyaviy nazorat usullari – moliyaviy nazorat funksiyalarini amalga oshirish jarayonida qoʻllanadigan muayyan usul va vositalar majmuidir. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda uning usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nazoratni amalga oshirishda nazorat qiluvchi subyekt tomonidan nazorat usullari toʻgʻri tanlanishi va qoʻllanishi samarali natijalar garovidir. Bundan tashqari, nazorat usullarining toʻgʻri qoʻllanishi nazorat ostidagi subyektning huquq va manfaatlari ham buzilmasligini, xoʻjalik faoliyatiga xalal bermaslikni taʼminlaydi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy nazoratning bir necha usullari ajratib koʻrsatiladi. Ularga kuzatuv, oʻrganish, tahlil qilish, tekshiruv, taftish, iqtisodiy-moliyaviy ekspertiza, monitoring va boshqalar kiradi. Lekin koʻp adabiyotlarda moliyaviy nazoratning asosiy usullari sifatida tekshirish va taftish koʻrsatiladi.

Tekshirish – xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda oʻz faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi hisoblanadi. Tekshirishning turlari:

muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli oʻzaro bogʻliq boʻlgan va turli xoʻjalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xoʻjalik yurituvchi subyektning turli boʻlinmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlar jinoyat ishlari yuzasidan tergov olib borish jarayonida tekshirish tayinlash toʻgʻrisidagi qaror asosida yoxud nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organning qaroriga binoan amalga oshiriladi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlar xoʻjalik yurituvchi subyektlarga bormasdan turib amalga oshiriladi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlarga ularning tekshirilayotgan xoʻjalik yurituvchi subyekt bilan oʻzaro munosabatlari yuzasidangina yoʻl qoʻyiladi, ulardan muqobil tekshirish predmetiga taalluqli boʻlmagan moliya-buxgalteriya hujjatlarini yoki boshqa hujjatlarni talab qilib olish taqiqlanadi;

nazorat tartibida tekshirish – xoʻjalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda koʻrsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish. Nazorat tartibida tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy boʻlinmalari bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi;

mavzuviy (tematik) tekshirish – nazorat ostidagi subyekt moliyaviy faoliyatining alohida jabhasini tekshirishdir (masalan, soliq tekshiruvi);

hujjatli tekshirish – bunda moliyaviy nazorat faqatgina moliyaviy hujjatlar (balanslar, hisobotlar va h.k.) asosidagina tekshiriladi;

moliya-xoʻjalik faoliyatini tekshirish (taftish) – soliq va valyuta toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xoʻjalik yurituvchi subyektning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini oʻrganish va taqqoslash hisoblanadi [17, 104-106-b.].

V.Sh. Nuritdinova va M.A. Sharapovalar fikricha, moliyaviy nazorat shakllarini quyidagi mezonlar boʻyicha klassifikatsiya qilish qabul qilingan: amalga oshirilish reglamenti; oʻtkazilish vaqti; nazorat subyektlari, nazorat obyektlari. Amalga oshirilish reglamenti boʻyicha moliyaviy nazorat shakllari quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin: majburiy (tashqi); tashabbuskor (ichki).

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, masalan, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, budjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratga, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga va h.k.larga tegishli boʻlishi mumkin.

Tashabbuskor (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasa-da, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Oʻtkazilish vaqti boʻyicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: dastlabki; joriy (operativ); navbatdagi (kelgusi, soʻnggi).

Soliq nazorati xoʻjalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonidan davlat oldidagi soliq majburiyatlarining bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi. Soliqqa tortish sohasidagi davlat moliyaviy nazorati (soliq nazorati) boshqaruv jarayonining ajralmas qismi va mamlakatda samarali soliq tizimini yaratishning muhim sharti hisoblanadi. U soliqqa tortish jarayonining yakuniy bosqichi boʻlib xizmat qiladi, shuning uchun soliq toʻlovchilar va budjetga kelajakda soliq tushumlarini rejalashtiradigan davlat organlari oʻrtasida takroriy aloqani taqdim etadi. Shu bilan birga, u soliq tizimidagi nazorat boʻgʻini funksiyalarini birlashtiradi va shu bilan birga soliq tushumlari nuqtai nazaridan budjetni shakllantirishning asosiy omili boʻlib xizmat qiladi [18, 9-b.].

Bojxona nazorati birinchidan, mamlakatning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta’minlash, ikkinchidan, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalaridan tushumlar, toʻlovlarning toʻliq va oʻz vaqtida, qonuniy asosda tushishini nazorat qiladi.

Pul-kredit nazorati mamlakatdagi pul-kredit munosabatlarini qonuniyligini, ya’ni bu sohada qonunchilikning buzilish holatlarini, jumladan valyuta aktivlarini noqonuniy asosda xorijga chiqib ketish va inflyatsiyani kuchayib ketish holatlari oldini oladi va nazoratini ta’minlaydi.

Sugʻurta nazorati orqali sugʻurta bozori va uning ishtirokchilarini xatti- harakatlarini qonunchilik talablariga mos boʻlishini ta’minlanadi va sugʻurtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari himoya qilinadi.

Investitsiya nazorati orqali mamlakatda investitsion muhit yaratiladi va iqtisodiyotimizga tashqi va ichki investitsiyalarni jalb qilishda qonunchilikka rioya etilayotganligi nazorat qilinadi [19, 57-61-b.].

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida uning quyidagi metodlaridan foydalaniladi: tekshiruv; tadqiq etish; nadzor (nazorat); moliyaviy holat tahlili; kuzatish (monitoring); taftish.

Tekshiruv hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy-xoʻjalik faoliyatning alohida masalalari boʻyicha amalga oshiriladi. Tekshiruv jarayonida moliyaviy intizomning buzilganligi aniqlanadi va ularni barham berish borasida choralar belgilanadi.

Tadqiq etish korxona va tashkilotlar faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. Tadqiq etish jarayonida bajarilgan ishlar, material, yoqilgʻi va energiyalarning sarflanish hajmlari nazorat tarzida oʻlchanadi. Shuningdek, tadqiq etish soʻrash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nadzor (nazorat) moliyaviy faoliyatning maʼlum bir turiga (masalan, sugʻurta, investitsion, bank va boshqa faoliyatlar) litsenziya olgan iqtisodiy subyektlar ustidan nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U buzilishi litsenziyaning chaqirib olinishiga olib keladigan oʻrnatilgan (belgilangan) qoidalar va normativlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni koʻzda tutadi.

Iqtisodiy tahlil moliyaviy nazoratni amalga oshirish metodi sifatida xoʻjalik faoliyatining natijalari, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda oʻrganishni koʻzda tutadi.

Taftish moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qoʻllash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xoʻjalik faoliyatini oʻzaro bogʻlangan kompleks tekshiruvidan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, yaʼni sodir etilgan xoʻjalik operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti maʼlumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Subyekt xoʻjalik faoliyatini qamrab olishning toʻliqligiga qarab taftishning quyidagi turlari boʻlishi mumkin: toʻliq; qisman; mavzuviy; kompleksli.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliyaviy nazorat maqsadi va davlat moliyaviy nazorati maqsadi boʻyicha quyidagi xulosaga kelindi:

Moliyaviy nazoratning maqsadi moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishida moliyaviy intizomni taʼminlash hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi moliya-budjet resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishida moliya-budjet intizomini taʼminlash hisoblanadi.

Davlatning moliyaviy nazoratining turlari boʻyicha quyidagi xulosaga kelindi: Davlat moliyaviy nazorati mazmuniga koʻra: 1) budjet nazorati; 2) soliq nazorati; 3) bank nazorati; 4) valyuta nazorati; 5) bojxona nazorati; 6) sugʻurta nazorati. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlarning huquqiy maqomiga koʻra 1) vakillik organlari nazorati; 2) prezident nazorati; 3) hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat; 4) hukumat nazorati; 5) maxsus vakolatli ijro hokimiyati organlari nazorati; 6) markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan nazorat. Idoraviyligiga koʻra idoraviy va ichki idoraviy (ichki xoʻjalik) nazoratga boʻlinadi.

Davlat moliyaviy nazoratning shakllari – nazorat funksiyalarini bajarish uchun yoʻnaltirilgan nazorat harakatlarini aniq ifodalash va tashkil etishning ifodasidir. Unga koʻra

dastlabki nazorat – pul jamgʻarmalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bogʻliq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin tegishli nazorat organlari tomonidan oʻtkaziladi. Joriy nazorat – aynan qaysidir moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida (masalan, soliqlarni toʻlash, davlat xarajatlarini moliyalashtirish, budjetni ijro qilish va boshqalar) oʻtkaziladi. Yakuniy nazorat – barcha moliyaviy operatsiyalar amalga oshirib boʻlinganidan soʻng oʻtkaziladi va tegishli moliyaviy va buxgalterlik hujjatlari, budjet, budjetdan tashqari jamgʻarmalarning ijrosi va boshqa moliyaviy operatsiyalarning yakuni boʻyicha hisobotlar tahlil va taftish qilinadi.

Moliyaviy nazorat usullari – moliyaviy nazorat funksiyalarini amalga oshirish jarayonida qoʻllanadigan muayyan usul va vositalar majmuidir. Tekshirish – xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda oʻz faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi hisoblanadi. Tekshirishning turlari: Muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli oʻzaro bogʻliq boʻlgan va turli xoʻjalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xoʻjalik yurituvchi subyektning turli boʻlinmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv. Nazorat tartibida tekshirish – xoʻjalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda koʻrsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish. Mavzuviy (tematik) tekshirish – nazorat ostidagi subyekt moliyaviy faoliyatining alohida jabhasini tekshirishdir (masalan, soliq tekshiruvi). Hujjatli tekshirish – bunda moliyaviy nazorat faqatgina moliyaviy hujjatlar (balanslar, hisobotlar va h.k.) asosidagina tekshiriladi. Rejali tekshirish – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan grafik boʻyicha moliya obyektlarini tekshirish. Rejadan tashqari tekshirish – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan grafikda belgilanmagan muddatlarda tekshirish hisoblanadi. Moliya-xoʻjalik faoliyatini tekshirish (taftish) – soliq va valyuta toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xoʻjalik yurituvchi subyektning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini oʻrganish va taqqoslash hisoblanadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. Oʻquv qoʻllanma. –Toshkent,-B.22 (386)
2. M.Yoʻldoshev, Y.Tursunov. Moliya huquqi.Darslik. TDYI.-Toshkent, 2004.-B.60 (241)
3. Финансовое право Республики Узбекистан. Коллектив авторов.Учебник. «Нисо полиграф» Тошкент, 2022.-С.101 (552)
4. A.Rahimova, E.Hojiyev. Oʻzbekiston Respublikasining moliya huquqi. Darslik. TDYI.-Toshkent,2002 -B.68 (407)
5. M.Yoʻldoshev, Y.Tursunov. Moliya huquqi.Darslik. TDYI.-Toshkent, 2004.-B.60 (241)
6. Azizov Sh.U. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. Maqola. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr,2016.-B.4-5
7. Davlat moliyaviy nazorati toʻgʻrisidagi ID-8746-sonli qonun loyiha. https://regulation.gov.uz/uz/document/8746
8. Adik Li. Oʻzbekiston Respublikasi moliya huquqi. Darslik.TDYI.-Toshkent, 2004.-B.76-77 (398)
9. Финансовое право Республики Узбекистан. Коллектив авторов.Учебник. «Нисо полиграф» Тошкент, 2022.-С.102 (552)
10. Финансовое право Республики Узбекистан. Коллектив авторов.Учебник. «Нисо полиграф» Тошкент, 2022.-С.102 (552)

11. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquqi nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. TDYUI.-Toshkent, 2011.-B. 65 (178)
12. Финансовое право Республики Узбекистан. Коллектив авторов.Учебник. «Нисо полиграф» Тошкент, 2022.-С.103 (552)
13. Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risidagi ID-8746-sonli qonun loyiha. https://regulation.gov.uz/uz/document/8746
14. Azizov Sh.U. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. Maqola. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr,2016.-B.5
15. Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent moliya institute. 2014 -B.33 (386)
16. Sh.B.Bilolxo‘jayeva, G‘.T.Xakimov. O‘zbekiston Respublikasi moliya huquqi. O‘quv qo‘llanma.TDYUI.-Toshkent,2011.-B.73 (504)
17. Sh.B.Bilolxo‘jayeva, G‘.T.Xakimov. O‘zbekiston Respublikasi moliya huquqi. O‘quv qo‘llanma.TDYUI.-Toshkent,2011. -B.104-106
18. Титов Антон Александрович. Совершенствование государственного финансового контроля в налоговой системе России. Автореферат экон.наук. Москва, 2013.-Б.9 (23)
19. Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2014-B.57-61

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).